

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDAN DARS DAN TASHQARI MASHG'ULOTLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI

Musirmanov Shohboz Usmon o'g'li

**SHDPI Matematika va ta'limda axborot texnologiyalari
kafedrasi o'qituvchisi**

Norboyeva Fotima Murodjon qizi

Matematika va informatika ta'lim yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14997767>

Annotatsiya. Tezisd a darsdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari masalan, klublar, seminarlar, tanlovlar va amaliy mashg'ulotlar kabi metodik yondashuvlar muhokama qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali metodlar resurslar va baholash tizimlari haqida ma'lumot beriladi. Ushbu ishning maqsadi informatika va axborot texnologiyalari fanini o'rgatish jarayonini yanada takomillashtirish va o'quvchilarda mustaqil ishlash hamda amaliy bilimlarni shakllantirishga yordam berishdir.

Аннотация. В тезисе обсуждаются различные формы внеклассных занятий, такие как клубы семинары конкурсы и практические занятия а также методические подходы к организации этих мероприятий. Также рассматриваются эффективные методы, ресурсы и системы оценки для развития практических навыков учащихся. Целью данной работы является совершенствование процесса преподавания информатики и информационных технологий а также помощь в формировании у учащихся навыков самостоятельной работы и практических знаний.

Abstract. the thesis various forms of extracurricular activities are discussed such as clubs seminars competitions and practical sessions along with methodological approaches to organizing these activities. Additionally effective methods resources and evaluation systems for developing students' practical skills are provided. The aim of this work is to improve the teaching process of Informatics and Information Technologies and assist in developing students' independent work skills and practical knowledge.

Kalit so'zlar: informatika axborot texnologiyalari, darsdan tashqari mashg'ulotlar, metodik yondashuvlar, klublar seminarlarda ishtirok etish, tanlovlar amaliy mashg'ulotlar, o'quvchilarning amaliy ko'nikmalari, innovatsion metodlar, mustaqil ishlash baholash tizimi, resurslar va vositalar, kompyuter laboratoriyalari, o'quvchilarni rag'batlantirish.

Ключевые слова: информатика информационные технологии внеклассные занятия методические подходы клубы участие в семинарах конкурсы практические занятия практические навыки учащихся инновационные методы самостоятельная работа система оценки ресурсы и инструменты компьютерные лаборатории мотивация учащихся совершенствование образовательного процесса программирование интерактивные методы развитие творческого мышления учащихся эффективная организация учебного процесса.

Keywords: informatics information technologies extracurricular activities methodological approaches clubs participation in seminars competitions practical lessons, practical skills of students, innovative methods independent work assessment system resources and tools computer laboratories motivating students improving the educational process programming, interactive methods developing creative thinking of students effective organization of the learning process.

Informatika va axborot texnologiyalari - (AT) fani hozirgi kunda jahon ta'lim tizimlarida alohida o'rin tutadi. Shuningdek, ushbu fanning rivojlanishi va ahamiyatining ortishi, o'quvchilarning ushbu sohadagi bilimlarini kengaytirish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish zaruratini tug'diradi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash, ijodiy fikrlash va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning informatika bo'yicha bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda qo'llashni o'rgatish uchun darsdan tashqari mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki amaliy ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalar va metodlarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish. O'quvchilarda mustaqil ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish. Darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bilimlarini kengaytirish, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, amaliy ko'nikmalarini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar quyidagi afzalliklarni taqdim etadi.

Seminarlar – o'quvchilarni informatikaning so'nggi yutuqlari, yangi dasturiy ta'minotlar va axborot texnologiyalari bilan tanishtirish uchun seminarlar va ma'ruzalar o'tkazish zarur. Bu o'quvchilarda zamonaviy texnologiyalarga qiziqish uyg'otadi. Informatika fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlar laboratoriya ishlarini o'z ichiga oladi. Bu turdagi mashg'ulotlar o'quvchilarga o'z bilimlarini amalda qo'llash imkonini beradi. O'quvchilar dasturlash, ma'lumotlar bazasini yaratish, ishlarni bajaradilar. Zamonaviy texnologiyalar yordamida onlayn mashg'ulotlar tashkil etish o'quvchilarga internet orqali o'z bilimlarini oshirish imkoniyatini yaratadi. Masofaviy ta'lim platformalaridan foydalanish, masofaviy laboratoriyalar va virtual tajribalar o'quvchilarning axborot texnologiyalari bilan bog'liq bilimlarini kengaytiradi. O'quvchilarga guruh bo'lib ishlash, real hayotdagi muammolarni hal qilish uchun loyihalar asosida mashg'ulotlar o'tkazish kerak. Bunday yondashuv o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undaydi va ularni muammoni tahlil qilish va hal qilishga o'rgatadi.

Darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil etish shartlari darsdan tashqari mashg'ulotlarning samarali bo'lishi uchun quyidagi shartlarga e'tibor berish kerak: O'qituvchining malakasi va tayyorgarligi. O'qituvchilar zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha yaxshi bilimlarga ega bo'lishlari zarur. Ular o'quvchilarga yangi texnologiyalarni o'rgatishda innovatsion pedagogik uslublarni qo'llashlari lozim. Texnik infratuzilma Darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan barcha texnik vositalar kompyuterlar, internetga kirish va dasturiy ta'minotlar mavjud bo'lishi kerak.

Mashg'ulotlar interaktiv tarzda o'tkazilishi, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash zarur. Bu orqali o'quvchilar o'z bilimlarini va ko'nikmalarini yanada rivojlantirishadi.

Informatika va axborot texnologiyalari fanidan darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish zamonaviy ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mashg'ulotlar o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish va ularda ijodiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlarni qo'llash, interaktiv usullar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarni mustaqil ishlashga rag'batlantirish,

shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar informatika va axborot texnologiyalari sohasida o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Ularning samarali tashkil etilishi o'quvchilarga nafaqat o'qituvchilardan, balki o'zaro hamkorlikdan ham ko'p narsalarni o'rganish imkonini beradi. O'quvchilarni real muammolarni hal qilishga tayyorlash uchun innovatsion metodlarni joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Musurmanova, Yayra, and Jasmina Toshpo'lotova. "Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida iqtisodiy jarayonlar va moliyaviy munosabatlarning transformatsiyasi." (2024): 38-41.
2. Uktamov, M. "Modeling the professional training development of future teachers through computer training." Science and innovation 2.B9 (2023): 139-141.
3. Октамов, Мададжон, Жасмина Тошполотова, and Яйра Мусурманова. "Aniq fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda dars jarayonlarini tashkil etish." Новый Узбекистан: наука, образование и инновации 1.1 (2024): 432-434.
4. Madadjon, O'Ktamov. "PEDAGOGIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING INFORMATIKADAN AXBOROT-TEXNOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI." Academic research in educational sciences 4.CSPU Conference 1 (2023): 275-281.
5. O'G'Li, Madadjon O'Ktam. "Kuzatuv quduqlarida yer osti suvlarini gidrorejim parametrlarini masofaviy nazorat qilishning avtomatlashgan tizimlari." Science and Education 2.12 (2021): 202-211.
6. Usmon o'g'li, Musirmanov Shohboz. "IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI TURISTIK JOYLARNI REKLAMA QILISH VA MIJOZLAR BILAN SAMARALI ALOQA O'RNATISH." Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting 4.10 (2024): 369-374.
7. Xabibullayevich, Abdullayev Safibullo, et al. "TECHNOLOGY OF ORGANIZATION OF ENVIRONMENT FOR THE DEVELOPMENT OF ERGONOMIC CULTURE." Harvard Educational and Scientific Review 1.1 (2021).
8. Beknazarova, Saida, et al. "METHOD OF FILTERING DIGITAL IMAGES BY PULSE CHARACTERISTIC IN THE SPECTRAL REGION." Актуальные вопросы развития инновационно-информационных технологий на транспорте 2021 (2021): 66-69.
9. Musirmanov, Shohboz. "TURIZM SOHASIDA KADRLAR TAYYORLASHDA AMALIYOT VA NAZARIYANING PEDAGOGIK UYG'UNLIGI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.11.